



UDK: 314.15-055.2:64(575.1)

**Marg‘uba NOSIROVA,**

Andijon davlat universiteti dotsenti

E-mail: nosirova.7974@gmail.com

**Durdonaxon TURGUNOVA,**

Andijon davlat universiteti talabasi

E-mail: durdonaturgunova61@gmail.com

N.J.Jo‘rayeva taqrizi asosida

### THE IMPORTANCE OF SOCIAL PREVENTION IN THE PREVENTION OF CRIME AND OFFENSES IN THE MAHALLA

Annotation

This article analyzes modern methods of combating crime in the mahalla system, the role of social prevention in ensuring the stability of society, and the essence of the work carried out by the “Mahalla Seven.”

**Key words:** Mahalla, social prevention, offenses, crime prevention, mahalla seven, safe zone.

### ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ В ПРОФИЛАКТИКЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И ПРАВОНАРУШЕНИЙ В МАХАЛЛЕ

Аннотация

В данной статье анализируются современные методы борьбы с преступностью в системе махалли, роль социальной профилактики в обеспечении стабильности общества и суть работы, проводимой “махаллинской семеркой.”

**Ключевые слова:** Махалля, социальная профилактика, правонарушения, профилактика преступности, махаллинская семерка, безопасная зона.

### MAHALLADA JINOYAT VA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHDA IJTIMOY PROFILAKTIKANING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mahalla tizimida jinoyatchilikka qarshi kurashishning zamonaviy usullari, ijtimoiy profilaktikaning jamiyat barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni va “Mahalla yettiligi” tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Mahalla, ijtimoiy profilaktika, huquqbuzarlik, jinoyatchilikning oldini olish, mahalla etiligi, xavfsiz hudud.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida huquqbuzarliklar profilaktikasining mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda nafaqat jazo choralarini qo‘llash, balki uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish — ijtimoiy profilaktikaning bosh maqsadiga aylandi.

Ijtimoiy profilaktika tushunchasi huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘luvchi asosiy ijtimoiy omillarni aniqlash, tahlil qilish va ularning oldini olishga qaratilgan tizimli faoliyatni anglatadi. Bunday omillar qatoriga ishsizlik, kambag‘allik, oilaviy nizolar, ta‘lim va tarbiya jarayonidagi uzilishlar, shuningdek, aholining huquqiy savodxonlik darajasining pastligi kabi holatlar kiradi. Ijtimoiy profilaktika jazo choralaridan farqli ravishda, asosan ogohlantiruvchi, ijtimoiy ko‘mak beruvchi va muammolarni barvaqt bartaraf etishga yo‘naltirilgan xarakterga ega bo‘lib, jinoyatchilikning ildiz omillariga ta‘sir ko‘rsatishni maqsad qiladi.

Amaliy va statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jinoyatlarning salmoqli qismi aynan ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, oilaviy muammolar va huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Shu bois, jinoyatchilik profilaktikasida bunday omillarni bartaraf etish samaradorlikning muhim sharti hisoblanadi.

Ilgari jinoyatchilikka qarshi kurashish asosan ichki ishlar organlari zimmasida bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi bosqichda mazkur faoliyatga keng jamoatchilik, xususan, mahalla institutlari faol jalb etilmoqda. Bu borada “Mahalla yettiligi” tizimining joriy etilishi huquqbuzarliklar profilaktikasining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu tizim doirasida davlat va jamoatchilik hamkorligi asosida ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan kompleks choralar amalga oshirilmoqda.

Xususan, kam ta‘minlangan va ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” mexanizmlaridan samarali foydalanish orqali jinoyatchilikning iqtisodiy sabablarini kamaytirish ko‘zda tutilmoqda. Shu bilan birga, nizoli va ijtimoiy xavf guruhiga mansub oilalar bilan individual ishlash, ularga psixologik va ma‘naviy yordam ko‘rsatish, oilaviy ajrimlarning oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlar bilan ishlash masalasi ham ijtimoiy profilaktikaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Yoshlar bandligini ta‘minlash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kasb-hunarga yo‘naltirish va foydali mehnatga jalb etish orqali huquqbuzarlik sodir etish xavfini kamaytirish maqsad qilinmoqda. Mazkur chora-tadbirlar yoshlarning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish,

ularning jamiyatdagi faolligini oshirish va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida faoliyat yuritayotgan F.G'aniyev rahbarligidagi tadqiqotchilar guruhi tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida muhim o'rin tutuvchi profilaktika inspektorlari hamda ijtimoiy profilaktika inspektorlari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari har tomonlama ilmiy jihatdan o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda ushbu ikki institut o'rtasidagi o'zaro aloqalarning tashkiliy-huquqiy asoslari, hamkorlik mexanizmlari, vakolatlar taqsimoti va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, profilaktika faoliyatini amalga oshiruvchi mutaxassislarining funksional vazifalari, ularning jamiyatda barqarorlik va jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni hamda huquqbuzarliklarning oldini olishdagi institutsional roli ilmiy asosda yoritib berilgan.

Bundan tashqari, F.Alijonov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan yakka tartibda ishlash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, "E-ijtimoiy moslashtirish" dasturida belgilangan chora-tadbirlarni samarali yakunlash jarayonida profilaktika inspektorining mahalla yetiligi bilan hamkorlikda qo'shma xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish masalalari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida mazkur jarayonning huquqiy-meyoriy asoslari, amaliy ijro mexanizmlari hamda subyektlar o'rtasidagi mas'uliyat va vakolatlar taqsimoti aniqlashtirilgan.

Ushbu ilmiy izlanishlar natijasida ijtimoiy moslashtirish jarayonida individual yondashuvning ahamiyati, profilaktika inspektorining muvofiqlashtiruvchi roli hamda mahalla institutining ijtimoiy nazorat va ijtimoiy yordam ko'rsatishdagi imkoniyatlari asoslab berilgan. Natijada, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ijtimoiy xavf omillarini bartaraf etish hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Albert Bandura "Ijtimoiy o'rganish" nazariyasi (Social Learning Theory) orqali zo'ravonlik va maladaptiv xulq-atvorning ijtimoiy modellashtirish orqali o'rganilishini ko'rsatgan, bu profilaktika shakllanishi uchun muhim asos bo'lgan. J. P. Laub va R. J. Sampson hayot davomida o'zgarish (life-course) nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazgan, profilaktikaning turli bosqichlarda qanday ishlashini ko'rsatgan. Keyinchalik David Farrington jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha katta miqyosli "longitudinal" tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrda 801-son qarori talablari asosiy metodologik asos qilib olindi. Mahallada ijtimoiy profilaktika ijrosi bo'yicha mahalla yetiligidan o'zaro hamkorlik mexanizmlari qiyosiy tahlil etildi. Shuningdek, "E-ijtimoiy profilaktika" elektron tizimi orqali ma'lumotlarni almashish va xulosalar tayyorlash tartibi o'rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy texnologiyalarning (videokuzatuv kameralari, "Smart mahalla" tizimi) profilaktika

Mas'ul shaxs	Kimlar bilan ishlaydi?
Hokim yordamchisi	Ishsizlar va bandligi ta'minlanmagan fuqarolar bilan.
Profilaktika inspektori	Huquqbuzarlikka moyil, zararli odatlarga qaram va nazoratdagi shaxslar bilan.
Yoshlar yetakchisi	Ishsiz va muammoli yoshlar, bitiruvchilar hamda yordamga muhtoj yoshlar bilan.
Xotin-qizlar faoli	Oilaviy nizoli vaziyatlar va tazyiqqa uchragan ayollar bilan.
Ijtimoiy xodim	Yolg'iz keksalar, nogironlar va og'ir kasallikka chalinganlar bilan.
Soliq inspektori	Tadbirkorlikni boshlash istagida bo'lgan fuqarolar bilan.

1-jadval. Ijtimoiy profilaktika obyektlarining taqsimlanishi

jarayoniga tatbiq etilishi mahallalarda "Xavfsiz hudud" muhitini yaratmoqda. Biroq, eng zamonaviy texnika ham insoniy muloqot va mahalla faollarining jonkuyarligi o'rnini bosa olmaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrda 801-son qaroriga ko'ra mahallada ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish subyekti sifatida mahalla yetiligidan barcha a'zolari (mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori) va ko'maklashuvchi shaxslar sifatida mehnat organi xodimi, tibbiyot xodimi, maktab direktori va maktab psixologi, inspektor-psixolog, shuningdek, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarning murojaatiga asosan jalb etiladigan tuman (shahar) darajasidagi tegishli davlat organlari va tashkilotlari xodimlari jalb etiladi.

Ijtimoiy profilaktika kimlarga nisbatan amalga oshiriladi?

1. Ko'mak va nazoratga muhtoj qatlam

Birinci galda, hayotiy sharoiti yoki xulq-atvori tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga e'tibor qaratiladi. Bular orasida:

a) Ijtimoiy himoyasizlar: Doimiy ishga ega bo'lmaganlar, daromad manbai yo'q ishsizlar hamda hayotda o'z yo'lini topishga qiynalayotgan bitiruvchi yoshlar.

b) Sog'lig'i va irodasi sinovda bo'lganlar: Ichkilik, giyohvandlik yoki psixotrop moddalarga bog'lanib qolgan, qimor va tavakkalchilik o'yinlarining domiga tushgan hamyurtlarimiz.

c) Murakkab taqdirlar: Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va jamiyatga moslashishda qiynalayotgan shaxslar, qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlar hamda "og'ir" toifadagi yoshlar.

d) Oilaviy inqirozlar: Ajrim yoqasiga kelib qolgan nizoli oilalar, muntazam tazyiq va zo'ravonlik ostida yashayotgan ayollar hamda og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar.

Shuningdek, o'z biznesini boshlamochi bo'lgan, biroq yo'l-yo'riqqa muhtoj tadbirkorlar ham ushbu tizimning diqqat markazida turadi.

2. Himoyaga muhtoj qatlam:

Profilaktikaning ikkinchi muhim yo'nalishi — bu jinoyat qurboniga aylanish ehtimoli bor insonlarni asrashdir. Bunga:

a) Yolg'iz yashayotgan va o'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar;

b) Nogironligi bo'lgan shaxslar;

c) Og'ir xastalikka chalingan va ijtimoiy himoyasiz qolgan fuqarolar kiradi.

Ijtimoiy profilaktika obyektlari bo'yicha amalga oshiriladigan ijtimoiy profilaktika tadbirlari bo'yicha profilaktika inspektori tomonidan "E-ijtimoiy profilaktika" elektron axborot tizimida tayyorlagan xulosasiga ko'ra tegishliligi bo'yicha ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarga yuboriladi. (1-jadval)

Bu jarayonda mahalla raisining o'rni beqiyos. U barcha mas'ul vakillarni (hokim yordamchisi, yetakchi, inspektor va boshqalarni) bir nuqtaga birlashtiradi. Raisning asosiy vazifasi — mahalla hududida ijtimoiy profilaktika shunchaki qog'ozda emas, balki amalda, hamkorlikda bajarilishini ta'minlashdir.

Ijtimoiy profilaktika — bu shunchaki nazorat emas, balki muayyan ko'makka muhtoj shaxslarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga qaratilgan tizimli harakatdir. Ushbu jarayonning asosi sifatida Ijtimoiy moslashtirish dasturi xizmat qiladi.

Har bir shaxsning taqdiri va muammosi o'ziga xos bo'lgani kabi, ijtimoiy moslashtirish dasturlari ham har bir fuqaro uchun alohida (individual) tartibda ishlab chiqiladi. Dastur tasdiqlangan muddatdan boshlab kuchga kiradi va uning ijrosi "yettilik" vakillari tomonidan mas'uliyat bilan yuritiladi. Jarayonning shaffofligini ta'minlash maqsadida barcha ma'lumotlar maxsus elektron axborot tizimi ("E-ijtimoiy profilaktika")ga kiritib boriladi. Bu yerda muhim bir jihat bor: ma'lumot kiritayotgan har bir mutaxassis axborotning haqqoniyligi uchun shaxsan javobgar sanaladi. Tuman darajasidagi mutasaddilar esa profilaktika inspektorlarining bu boradagi faoliyatini har kuni monitoring qilib, tizimning uzluksiz ishlashini nazorat qiladi. Mahalla raisi ushbu murakkab zanjirning muvofiqshtiruvchisi (moderatori) hisoblanadi. U har hafta barcha mas'ullarning hisobotini tinglab, ishlarning borishini muhokama qiladi. Shuningdek, profilaktika samaradorligini oshirish uchun keng jamoatchilik — tibbiyot xodimlari, maktab psixologlari, imom-xatiblar va mahalla oqsoqollari ham jarayonga jalb etiladi. Bu esa "mahalla — bir oila" tamoyili asosida ijtimoiy muammolarni jamoaviy yondashuv bilan hal qilish imkonini beradi.

**Xulosa.** Jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishda ijtimoiy profilaktika zamonaviy kriminologik va sotsiologik yondashuvlarning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon

bo'lmoqda. U huquqbuzarliklarning oqibatlariga qarshi kurashishdan ko'ra, ularning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks mexanizm hisoblanadi. Mazkur yondashuv davlatning insonparvar siyosati hamda "Obod va xavfsiz mahalla" konsepsiyasi bilan uzviy uyg'unlashadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, mahalla tizimida joriy etilgan "Mahalla yettiligi" modeli huquqbuzarliklar profilaktikasida institutsional hamkorlikning samarali shakli bo'lib, u davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalla jamoatchiligi o'rtasida funksional muvofiqlikni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi 801-son qarori mazkur tizimning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlab, ijtimoiy profilaktika faoliyatini raqamlashtirish va manzillilik tamoyili asosida olib borishga zamin yaratdi.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadiki, texnika va tashkiliy choralar o'z-o'zidan kutilgan natijani bermaydi. Ijtimoiy profilaktika samaradorligi ko'p jihatdan inson omili, ya'ni mahalla yettiligi a'zolarining kasbiy kompetensiyasi, ijtimoiy mas'uliyati va aholi bilan muloqot madaniyatiga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, ishsizlik, oilaviy nizolar, yoshlar muammolari va xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik kabi ijtimoiy xavf omillarini erta aniqlash va individual yondashuv asosida bartaraf etish profilaktikaning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy profilaktika mahalla tizimida davlat siyosatining muhim institutsional vositasi sifatida jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, jinoyatchilik darajasini barqaror kamaytirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmlarning izchil va tizimli amalga oshirilishi fuqarolarning davlat va jamiyatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent. "O'zbekiston" 2024 yil.
2. "E-ijtimoiy profilaktika" elektron tizimidan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – Yurt taraqqiyoti va xalq faravonligini garovi" // Toshkent«O'zbekiston»-2017
4. Mahallalarda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi "Mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi 801-son qarori.
5. O'RQ-371-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.
6. Ismoilov I. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi: muammo va yechimlar". Toshkent, 2022.
7. G'aniyev F., G'aniyeva G., Abdumominov D. (2024). Profilaktika inspektorining ijtimoiy profilaktika inspektori bilan hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari. *Central Asian Journal of Interdisciplinary and Management Studies*, 1 (16), 94–96.
8. Alijonov Firdavs Xayrulla o'g'li. (2025). Ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan yakka tartibdagi "E-ijtimoiy moslashtirish" dasturida belgilangan chora tadbirlarni yakunlash bo'yicha profilaktika inspektorining mahalla yettiligi bilan qo'shma xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish. Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari, 2(10), 86–87.